



32-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TEST MARKAZI

REPETITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

## SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_ F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

### ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.


Kitob tipi: **32 (516366)**

### FANLAR:

- Blok 1: Ona tili va adabiyoti*
- Blok 2: Matematika (informatika bilan)*
- Blok 3: Fizika*

Savollar kitobi raqami: **5339253**

Toshkent – 2016



## ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Qaysi javobda bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarga ikkitadan misol keltirilgan?  
A) hatto, nihoyat, sayin, ya'ni, tufayli, va  
B) nahotki, negaki, qadar, naq, hamda, ichra  
C) nahotki, hatto, naq, ya'ni, tufayli, uzra  
D) nahotki, basharti, uzra, agar, atigi, faqat
2. Quyidagi ravishlardan nechtesi tuzilishiga ko'ra sodda ravish hisoblanadi?  
**xiyol, uzoqda, mardlarcha, ozgina, o'zicha, har on, shu payt, zo'rg'a, do'stona**  
A) 3 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 4 ta
3. Dunyo shoirlari Vatan sha'niga Sifat axtarmishlar qator va qator Nihoyat kelmishlar bitta ma'niga// Ona Vatan deya bitmishlar ash'or. Ushbu gapda // qaysi tinish belgisi qo'yiladi?  
A) vergul B) nuqtali vergul C) ikki nuqta D) tire
4. Quyidagi qaysi gapda vazifadoshlik asosida ma'nosi ko'chgan so'z ega vazifasida kelgan?  
A) Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.  
B) Rentgen apparati natijalarini kutaymiz.  
C) Stol oyog'i pishiq yog'ochdan qilingan.  
D) Qozonning qulog'i qiyshayib qolgan ekan.
5. Quyida keltirilgan gapda nechta yasama sifat mavjud? **Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.**  
A) 3 B) yasama sifat qatnashmagan C) 1 D) 2
6. Ani nazm etki, tarhi toza bo'lg'ay, Ulusqa mayl beandoza bo'lg'ay. Navoiy "Xamsa" sidagi ushbu bayt aruzning qaysi vaznida yozilgan?  
A) sa'ri bahrida  
B) hazaji musammami mahzuf (maqsur)  
C) mutaqoribi musammami mahzuf (maqsur)  
D) hazaji musaddasi mahzuf (maqsur)
7. Ilmiy uslubning xususiyatlari haqida berilgan qaysi hukm(lar) to'g'ri?  
1) sof ilmiy uslubda fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi;  
2) ilmiy-ommabop uslubda ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llansa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi;  
3) tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq turadi.  
4) ilmiy ommabop uslubda eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.  
A) 2, 3 B) 1, 4 C) 1, 2 D) 4
8. Tarkibida o'zaro shakldosh so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gapni aniqlang.  
A) Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, farzandlarimiz o'kinch nimaligini bilmasin.  
B) Suv ko'p bo'lsa, ekinlar yaxshi o'sadi, dasturxon to'kin bo'ladi.  
C) Sen nimani istasang, nimani so'rasang, o'shani muhayyo qilamiz.  
D) Istagimiz shuki, hayot farovon bo'lsin, hech kim yomonlik ko'rmasin.
9. Quyida keltirilgan gapdagi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalardagi portlovchi undoshlar sonini aniqlang. **Yoqimli yoz shabadasi endigina qad ko'tarib kelayotgan yosh nihollarni silkitardi.**  
A) 8 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta
10. Oybekning qissalari berilgan qatorni toping.  
A) "Quthug' qon", "Dilbar davr qizi", "Nur qidirib"  
B) "Ulug' yo'l", "Oltin vodiyan shabadalar", "Quyosh qoraymas"  
C) "Baxtigul va Sog'indiq", "O'ch", "Navoiy"  
D) "Nur qidirib", "Bola Alisher", "Bolalik"
11. Qaysi qatorda olmoshning ikkita turi qatnashgan?  
A) O'zingni o'zingga maqtagandan qo'rq.  
B) Mana bu manzarani qaranglar, - dedi Manzura.  
C) Siz o'z ota-onangizning jigargo'shalarisiz, bu kam.  
D) Qachonlardir qarshimdan o'tsang, seni derdim oddiy yo'lovchi.
12. Odamning har qanday sharoitdagi kuchli quroli uning aql-u zakovatidir. Ushbu gapda kesim necha marta boshqa bo'laklarga nisbatan bevosita hokim bo'lak vazifasini bajargan?  
A) 2 B) 3 C) 1 D) 4
13. Mazkur bog'lar Samarqanddagi boshqa bog'lardan o'zining tarovati, ulug'vorligi hamda go'zal nafasati bilan ajralib turar edi. Ushbu gapda nechta otli so'z birikmasi mavjud?  
A) 8 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 6 ta
14. Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon, Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami. Kim kuchuk bila xo'dukka necha qilsang tarbiyat, It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami. Alisher Navoiyning ushbu misralar bilan yakunlanuvchi she'ri qaysi janrda yozilgan?  
A) qit'a B) g'azal C) musaddas D) ruboiy
15. Quyidagi qaysi so'zlardan shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimchalar yordamida sifat yasash mumkin?  
1) gap; 2) ehtiyot; 3) to'k; 4) och; 5) o'yna; 6) jirkan; 7) quvon  
A) 2, 3, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6 C) 1, 2, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 5, 6, 7
16. Qaysi javobda nomi keltirilgan she'rni Usmon Nosir Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safari chog'ida yozgan?  
A) "Yur tog'larga chiqaylik" B) "Yo'lchi"  
C) "Bolaligimda" D) "Yurganmisiz birga oy bilan"
17. Orazidin shams-u qamardur xijil, So'zlaridin shahd-u shakar munfail. Hosili umri erdi ul boyni Oti ... erdi o'shal oyni. Nuqtalar o'rnini ta'rifi keltirilgan go'zal nomi bilan to'ldiring.  
A) Shirin B) Gunashbonu C) Guldursun D) Layli
18. Turkiston o'lkamiz vodiylari, saholari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk – o'zbekdur. Ushbu gapdagi egalarni aniqlang  
A) vodiylari, saholari, tog'lari, aholisi  
B) vodiylari, saholari, tog'lari, turk  
C) vodiylari, saholari D) o'lkamiz, tog'lari, aholisi

19. Qaysi qatorda harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan fe'l shakli ishtirok etgan?  
 A) *Birdan havo bulut bo'lib, momoqaldiroq gumburladi.*  
 B) *Qiz turtinib xonaga kirib keldi.*  
 C) *Mehmonlar kechroq taklif etilgan edi.*  
 D) *Ular uzoq suhbatlashgandan so'ng o'rinlaridan turdi.*
20. Qo'shma gap berilmagan javobni aniqlang.  
 A) *Bularning bari tushimiddi, bilolmadim.*  
 B) *Ota-onasi shaharda o'qisin deb, Buxoroga ko'chib kelishibdi.*  
 C) *Tilak bilan yurilsa, yiroq yer ham yaqin bo'ladi.*  
 D) *Bir so'z bilan aytganimizda, O'zbekiston Amir Temur orzu qilgan yurtga aylanib bormoqda.*
21. Qaysi javobda keltirilgan gapda yetakchi morfema ham, so'z yasovchi ko'makchi morfema ham omonim xarakterga ega bo'lgan yasama fe'l qatnashgan?  
 A) *U bir oz chanqagan edi.*  
 B) *Uning gapi og'zida qolib, ko'zlari xiyol kengaydi.*  
 C) *Kuz kelib, kunlar qisqardi.*  
 D) *Ish doirasi toraydi.*
22. Rus shoiri Sergey Yeseninning qaysi she'rini Erkin Vohidov uning she'riyatiga xos asosiy xususiyatlardan biri bo'lmish qisqa-qisqa vaznlarda yozish odatiga qat'iy amal qilib, yetti bo'g'inlik vaznda tarjima qilgan?  
 A) *"Singlimga xat"* B) *"Ona ibodati"*  
 C) *"Bu dunyoda men bir yo'lovchi"*  
 D) *"Xurosonda bir darvoza bor"*
23. Qaysi so'zga fe'l yasovchi va sifat yasovchi qo'shimcha ketma-ket qo'shilganda so'zda 2 xil fonetik hodisa kuzatish mumkin?  
 A) *qiyin* B) *yalt* C) *yig'i* D) *titra*
24. Pirimqul Qodirov qalamiga mansub qissalar nomi berilgan javobni aniqlang.  
 A) *"Qadrim", "Meros"* B) *"Uch ildiz", "Yulduzli tunlar"*  
 C) *"Yulduzli tunlar", "Meros"*  
 D) *"Qora ko'zlar", "Olmos kamar"*
25. Omonimlik xususiyatiga ega bo'lmagan polisemantik so'zlarni aniqlang.  
 1) davlat; 2) og'iz; 3) urush; 4) bo'lmoq; 5) bo'g'moq; 6) dunyo  
 A) 1, 2, 4, 6 B) 1, 2, 3, 6 C) 3, 5 D) 2, 4, 5, 6
26. Bir kishi bir hakim huzurida befoyda so'zlarni haddan ortiq ko'p gapirdi va so'z orasida: "Ko'p so'zladim. Endi so'zlashni bas qilay", – dedi. Hakim unga e'tiroz bildirdi: "Yo'q, sen hali so'z so'zlaganing yo'q!" Berilgan parchaning ko'chirma gap qismida nechta yasama so'z mavjud?  
 A) 5 B) 3 C) 2 D) 4
27. "Kelin ichki-tashqi dang'illama hovlida, saroyday hashamatli, boy bezakli uylarda uni hech narsa qiziqitirmas, bu xonadonning odamlari ham, narsalari ham dushman, yot, sovuq ko'rinar edi". Ushbu parchadagi kelin kim?  
 A) *Zebi ("Kecha va kunduz")*  
 B) *Maryamxon ("Zaharli hayot")*  
 C) *Unsin ("Dahshat")*  
 D) *Gulnor ("Qutlug' qon")*
28. *Qalamkash, avvalo, Inson bolasining quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim.* Ushbu gapdagi mavhum otlar sonini aniqlang.  
 A) 6 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 7 ta
29. **Daraxtni faqat gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil olish ham san'atdir.** Ushbu gapdagi yordamchi so'zlar turkumiga kiruvchi birliklar sonini toping.  
 A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
30. Pahlavon Mahmudning "Kanz ul-haqoyiq" asari qaysi janrda yozilgan?  
 A) *nasriy asar* B) *tarje'band* C) *doston* D) *masnaviy*
31. Quyida berilgan gapning ko'chirma gap qismi qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?  
**"Qalinroq kiyintirsam, isib ketmaysanmi?" – so'radilar onam.**  
 A) *aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap*  
 B) *hol ergash gapli qo'shma gap*  
 C) *ega ergash gapli qo'shma gap*  
 D) *bog'langan qo'shma gap*
32. Qaysi xalq dostoni qahramoni cho'l-u-ko'lda kezib yurishini shohlikdan ziyod bilib, podsholik taxtini rad etadi?  
 A) *Alpomish* B) *Kuntug'mish* C) *Ravshan*  
 D) *Rustamxon*
33. Qaysi javobdagi so'z noto'g'ri yozilgan?  
 A) *tadqiqot* B) *talafot* C) *melodramma* D) *tatbiq*
34. *Qaytar bo'lsam quruq qo'l ovdan, Qora qozon qolsa qaynovdan, Ham ayrilib o'lja, ulovdan, Qarzga botar bo'lsam birovdan, Taskin berib onam yig'laydir, Qolganlari yolg'on yig'laydir.* (To'ra Sulaymon) Ushbu she'riy parchada fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'zlar necha o'rinda qo'llangan?  
 A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
35. Juft-juft matnlar va juft-juft naqarotlardan tashkil topgan xalq qo'shig'i nomini belgilang.  
 A) *"Boshginam og'riydi"* B) *"Boychechak"*  
 C) *"Chittigul"* D) *"Maydagul"*
36. Quyida berilgan qaysi g'azal vazni aruzning mafoiylun-mafoiylun-faulun(yoki mafoiyl) vaznida yozilgan?  
 A) *"Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi..."*  
 B) *"Jong'a chun derman: "Ne erdi o'lmakim kayfiyati?..."*  
 C) *"Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il..."*  
 D) *"Ayoqingga tushar har lahza gisu..."*

#### MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

37.  $x^2 + 4^{\log_2 x} < 8$  tengsizlikni yeching.  
 A) (-2; 2) B) (0; 2) C) [-2; 2] D) (0; 2]
38. Ifoda qiymatining oxirgi raqamini toping.  
 $5 \cdot |2015^{2013} - 2014^{2014}| + 7$   
 A) 8 B) 2 C) 4 D) 6
39. Bir sonning 25% ortig'i shu sonning 25% kamidan necha foiz ko'p?  
 A)  $60\frac{2}{3}$  B) 70 C) 50 D)  $66\frac{2}{3}$
40. Bo'luvchi  $\frac{4}{3}$  marta orttirilsa, bo'linuvchining esa  $\frac{1}{3}$  qismi yo'qotilsa, bo'linma qanday o'zgaradi?  
 A) 0,(8) marta oshadi B) o'zgarmaydi C) 25% ga oshadi  
 D) 2 marta kamayadi




41.  $-\frac{x+1}{2} = \frac{\sqrt{x-3} + \sqrt{x+3}}{\sqrt{x-3} - \sqrt{x+3}}$  tenglamaning yechimlari to'plamini toping.  
A) {5} B) {5; -3} C) {5; 10} D) {3; 10}
42.  $\frac{0, (1)}{0, (5)} + \frac{0, (13)}{0, (65)} + \frac{0, (19)}{0, (95)} - 0, (9)$  ni hisoblang.  
A) 0,4 B) -0,4 C) 0, (6) D) -0,6
43. Sharga konus ichki chizilgan. Konusning yasovchisi asosining diametriga teng. Shar hajmining konus hajmiga nisbatini toping.  
A) 8 : 3 B) 32 : 9 C) 27 : 4 D) 16 : 9
44.  $\sin x = 0$ ,  $1x$  tenglama nechta ildizga ega?  
A) 5 ta B) 10 ta C) 3 ta D) 7 ta
45. Rombning yuzi 16 ga, diagonallari nisbati 1:2 ga teng bo'lsa, uning tomonini toping.  
A)  $2\sqrt{5}$  B)  $2\sqrt{13}$  C)  $2\sqrt{2}$  D)  $2\sqrt{7}$
46.  $ABC$  to'g'ri burchakli uchburchakning katetlarini diametr qilib yuzlari  $30\pi$  va  $20\pi$  bo'lgan yarim doiralar chizilgan bo'lsa, gipotenuzaning uzunligini toping.  
A) 20 B) 10 C) 22 D) 15
47.  $x\sqrt{3-2x-x^2} \geq 0$  tengsizlikni eching.  
A)  $[0; \infty)$  B)  $[1; \infty)$  C)  $\{-3\} \cup [0; 1]$  D)  $[0; 1]$
48.  $ABC$  to'g'ri burchakli uchburchakda  $C$  to'g'ri burchak,  $BC=15$ ,  $AC=8$  uning  $B$  burchagi sinusi va tangensi nisbatini toping.  
A)  $\frac{8}{17}$  B)  $\frac{17}{15}$  C)  $\frac{8}{15}$  D)  $\frac{15}{17}$
49.  $\frac{m-4\sqrt{m-4}}{2} \cdot \frac{\sqrt[3]{m+4\sqrt{m-4}} \cdot \sqrt[3]{\sqrt{m-4}+2}}{\sqrt[3]{m-4\sqrt{m-4}} \cdot \sqrt[3]{\sqrt{m-4}-2}}$  ifodani soddalashtiring ( $m \geq 4$ ,  $m \neq 8$ ).  
A)  $\frac{m}{2} + 4$  B)  $m - 2$  C)  $m + 2$  D)  $\frac{m}{2} - 4$
50. Nechta uch xonali son 35 ga qoldiqsiz bo'linadi?  
A) 26 B) 25 C) 27 D) 28
51.  $5 + \left(x^2 + \frac{1}{x^2}\right) - 4\left(x + \frac{1}{x}\right) = 0$  tenglamaning haqiqiy yechimlari ko'paytmasi toping.  
A) 1 B) 0 C)  $\frac{3+\sqrt{5}}{2}$  D)  $\frac{3-\sqrt{5}}{2}$
52. Asoslari 8 va 2 bo'lgan teng yonli trapetsiyaga aylana ichki chizilgan. Katta asosga, yon tomonga va ichki chizilgan aylana urinuvchi aylana radiusini toping.  
A)  $2 - \sqrt{3}$  B)  $3 - \sqrt{5}$  C)  $3 + \sqrt{5}$  D)  $2 + \sqrt{3}$
53. 2 va 162 sonlari orasiga shunday 3 ta son qo'yildiki, ular birgalikda ishorasi almashinuvchi geometrik progressiyani tashkil qildi. Oraga qo'yilgan sonlar yig'indisini toping.  
A) -42 B) 42 C) 78 D) 0
54. Ifodani soddalashtiring, bunda  $\alpha \neq \frac{3\pi}{4} + \frac{\pi n}{2}$ :  
$$\frac{\cos \frac{5\pi}{6} \cdot \cos \frac{\pi}{3} + \sin \frac{5\pi}{6} \cdot \sin \frac{\pi}{3}}{\operatorname{tg}\left(\frac{3\pi}{4} - \alpha\right)}$$
  
A) 1 B) 0 C) 2 D)  $\frac{1}{2}$
55.  $f(x) = x^8 - \cos 3x$  hosilani hisoblang.  
A)  $8x^7 - 3\sin 3x$  B)  $\frac{x^9}{9} - 3\sin 3x - C$  C)  $8x^7 + 3\sin 3x$   
D)  $8x^7 - \frac{1}{3}\sin 3x$
56.  $3(\sin^4 \beta + \cos^4 \beta) - 2(\sin^6 \beta + \cos^6 \beta)$  ni soddalashtiring.  
A)  $\frac{1}{4}\sin^2 2\beta$  B) 1 C)  $\sin^2 2\beta$  D) 0
57. Katetlari  $3 - 2\sqrt{5}x + x^2 = 0$  tenglama ildizlariga teng bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning yuzini toping.  
A) 5 B) 4 C) 1,5 D) 2
58. Agar  $A$  va  $B$  butun sonlari  $x^2 + Ax + B = 0$  tenglamaning ildizlari ekanligi ma'lum bo'lsa, shu tenglamadagi  $A$  va  $B$  koeffitsiyentlarni toping.  
A)  $(-1; 2)$ ,  $(0; 1)$  B)  $(1; -2)$ ,  $(0; 0)$  C)  $(2; -1)$ ,  $(0; 0)$   
D)  $(1; 2)$ ,  $(2; 1)$
59.  $\vec{a}(-6; 8)$  vektor berilgan.  $\lambda a$  vektorning uzunligi 5 ga teng bo'lsa,  $\lambda$  ni toping.  
A) 1 B) 2 C) -1 D)  $\pm \frac{1}{2}$
60.  $y = e^{(2x-3x^2)} \cdot \log_5(3x^2 - 2x)$  funksiya hosilasining  $x = 1$  dagi qiymatini toping.  
A)  $4(e \cdot \ln 5)^{-1}$  B)  $4(e^2 \cdot \ln 5)^{-1}$  C)  $4(e^2 \cdot \ln^2 5)^{-1}$   
D)  $4(e \cdot \ln^2 5)^{-1}$
61. Agar  $\frac{a}{2} + \frac{6}{a} = 4$  bo'lsa  $(4^{-1}a)^2 + (3a^{-1})^2$  ni toping.  
A) 2 B) 2,5 C) 3 D) 3,5
62. Teng yonli uchburchakning asosi 12 sm. U yon tomonining 0,6 qismini tashkil qilsa, unga ichki chizilgan aylana radiusini (sm) toping.  
A)  $\frac{6\sqrt{91}}{13}$  B)  $\frac{19\sqrt{5}}{13}$  C)  $\frac{19\sqrt{3}}{5}\pi$  D)  $19\pi$
63.  $x^2 \cdot 5^x + 2x \cdot 5^x = x^2 \cdot 5^{\sqrt{x+6}} + 2x \cdot 5^{\sqrt{x+6}}$  tenglama nechta ildizga ega?  
A) 3 ta B) 1 ta C) 4 ta D) 2 ta
64.  $\int (5x + 6 + x^2) dx$  ni hisoblang.  
A)  $\frac{x^3}{3} + \frac{x^2}{2} + 6x + c$  B)  $\frac{x^3}{3} + \frac{5x^2}{2} + 3x + c$   
C)  $\frac{x^3}{3} + \frac{5x^2}{2} + 6x + c$  D)  $\frac{x^3}{3} - \frac{5x^2}{2} + 6x + c$
65. Piramida asosining yuzi 512 ga, uning balandligi 16 ga teng. Asosiga parallel bo'lgan kesimning yuzi 50 ga teng bo'lsa, u asosdan qanday masofada joylashgan?  
A) 8 B) 11 C) 10 D) 9
66.  $y = \frac{x^2 + 6x + 21}{11 + 6x + x^2}$  funksiyaning eng katta va eng kichik butun qiymatlari ko'paytmasini toping.  
A) 15 B) 6 C) 12 D) 18
67. Sanaga bog'liq ravishda qimmatlilik xususiyatini yo'qotadigan axborot berilgan javobni aniqlang.  
A) Yil boshidan 1-martgacha 59 kun o'tadi  
B) 21-mart Navro'z bayramidir  
C) 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayramidir  
D) Kvadratning yuzi tomonining kvadratiga teng
68. Hisoblang va javobini 16 lik sanoq sistemada ifodalang:  
 $1001111_{(2)} * 1000_{(2)} + 200_{(8)}$   
A) 2F7 B) 2F9 C) 2E8 D) 2F8

69. Windows operatsion tizim (sistema)da papka va hujjatlarni vertikal ustun shaklida tartiblash va ularni kichik ikonkalar tarzida ko'rsatish usuli qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?  
A) Плитка B) Значок C) Таблица D) Список
70. MS Excel 2003 dasturida D12=4, E12=6 bo'lsa, F15 katakchadagi "=СУММ(4\*E12;D12\*2;5;10)" natijasi nechaga teng bo'lishini aniqlang.  
A) 47 B) 32 C) 50 D) 63
71. Quyida keltirilgan URL manzilda bayonnoma (protokol) nomini ko'rsating. <http://www.tps.uz>  
A) tps B) uz C) www D) http
72. Paskal tilidagi quyidagi dastur natijasini aniqlang:  
Var a, k: integer;  
Begin a:= -2; For k:= -5 to 1 do a:=(-2)\*a; write(a); end.  
A) -512 B) 256 C) -2 D) 512

## FIZIKA


73. Hajmi  $5 \times 4 \times 3,5 \text{ m}^3$  bo'lgan xonadagi havo  $10^5 \text{ kPa}$  o'zgarmas bosimda  $7^\circ\text{C}$  dan  $27^\circ\text{C}$  gacha isitilgan bo'lsa, havoning kengayishida bajarilgan ishni (kJ) toping.  
A) 14 B) 406 C) 75 D) 500
74. Toza kremniy moddasining yutilish spektri qanaqa ekanligini aniqlang.  
A) yutilish spektriga ega emas B) uzluksiz C) yo'l-yo'l D) chiziqli
75. Nikel tuzi eritilgan vannada tok kuchi  $i=0,02 \cdot t$  (A) qonun bo'yicha o'zgaradi. 240 s ichida qancha nikel ajralib chiqishini aniqlang (mg). Nikelning elektrokimyoviy ekvivalenti  $3 \cdot 10^{-7} \text{ kg/C}$  ga teng.  
A) 219 B) 173 C) 205 D) 190
76. Massasi 100 kg bo'lgan bir jinsli balka A va B tayanchlarda yotibdi. A tayanchdan  $\frac{l}{4}$  masofada massasi 80 kg bo'lgan yuk bor. Balkaning tayanchlarga bosim kuchlarini (N) toping. ( $g=10 \text{ N/kg}$ )



- A) 1050; 750 B) 1100; 700 C) 1300; 500 D) 1200; 600

77. Cho'zadigan dastgohda simning uzunligi 5 marta orttirildi. Bu simning qarshiligi necha marta ortadi?  
A) 20 marta B) 12,5 marta C) 30 marta D) 25 marta
78. U potentsiallar ayirmasigacha zaryadlangan C sig'imli kondensator qoplamalari xuddi shunday zaryadlanmagan kondensator qoplamalariga ulangan. Kondensatorlarni ulovchi o'tkazgichlarda qanday miqdordagi issiqlik ajraladi?  
A)  $\frac{CU^2}{4}$  B)  $\frac{CU^2}{16}$  C)  $\frac{CU^2}{8}$  D)  $\frac{CU^2}{2}$
79. Yorug'lik bo'shliqdan optik bir jinsli muhitga o'tmoqda. Nurning muhit chegarasiga tushish burchagi  $64^\circ$ , sinish burchagi  $49^\circ$  bo'lsa, muhitda yorug'likning tarqalish tezligini toping (m/s).  $\sin(49^\circ)=0,75$ ,  $\sin(64^\circ)=0,9$ .  
A)  $0,9 \cdot 10^8$  B)  $7,5 \cdot 10^8$  C)  $1,5 \cdot 10^8$  D)  $2,5 \cdot 10^8$

80. Sim ramka bir jinsli magnit maydonda aylantirilganda ramkani kesib o'tuvchi induksiya oqimi vaqt o'tishi bilan  $\Phi = 10^{-2} \cos 10\pi t$  qonunga asosan o'zgaradi. Ramkani aylantirish chastotasi (Hz) qanday?  
A) 5 B)  $10\pi$  C) 6 D) 4
81. Dinamometrda 5 kg massali yuk osilgan. U yuk bilan bir safar yuqoriga 4 m/s tezlik bilan, ikkinchi safar pastga 1 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan harakatlantiriladi. Bu hollardagi dinamometr ko'rsatishlarining ayirmasini toping (N).  $g=10 \text{ m/s}^2$   
A) 40 B) 5 C) 10 D) 50
82. Quyidagi o'lchov birliklarining qaysilari Xalqaro birliklar sistemaning (XBS) asosiy birliklariga mansub?  
1) genri (H); 2) kilogramm (kg); 3) amper (A); 4) sekund (s); 5) kelvin (K); 6) m/s; 7) nyuton (N); 8) joul (J); 9) metr (m)  
A) 3,4,5 B) 2,6,7,9 C) 1,2,3 D) 2,3,4,5,9
83. C sig'imli kondensator q zaryad bilan, 2C sig'imli kondensator 3q zaryad bilan zaryadlangan. Bu kondensatorlar qutblarini teskari holda ulansa sistema elektr energiyasi qanchaga kamayadi?  
A)  $q^2/2C$  B)  $25q^2/12C$  C)  $13q^2/12C$  D)  $7q^2/4C$
84. 30 kg po'kak qanday hajmni egallasa, shuncha hajmli temir massasi necha kilogrammga teng? Po'kak zichligi  $0,24 \text{ g/sm}^3$ , temir zichligi  $7,8 \text{ g/sm}^3$ .  
A) 97,5 B) 9,75 C) 975 D) 9750
85. Massasi 250 kg bo'lgan temir erish temperaturasigacha qizdirilgan bo'lsa, temir butunlay erishi uchun unga qancha issiqlik (MJ) berish kerak bo'ladi? Temir uchun solishtirma erish issiqligi  $27 \cdot 10^4 \text{ J/kg}$ , temirning erish temperaturasi  $1539^\circ\text{C}$  ga teng.  
A) 70 B) 28,3 C) 88 D) 67,5
86. Rasmda tasvirlangan linzalardan qaysilari yig'uvchi linza? Linzalar havoda joylashgan.



- A) 2, 3 va 4 B) 2 va 3 C) 1 va 4 D) 1 va 2

87. Diffuziya qanday moddalarda bo'lishi mumkin?  
A) faqat gazlarda  
B) gazlar, suyuq va qattiq moddalarda  
C) faqat suyuqlik va qattiq jismlarda  
D) faqat gaz va suyuqliklarda
88. Elektronning massasi tinch holatdagi massasidan 3 marta katta bo'lishi uchun uning tezligi (m/s) qanday bo'lishi kerak?  
A)  $2,5 \cdot 10^9$  B)  $2,83 \cdot 10^8$  C)  $3,5 \cdot 10^7$  D)  $3 \cdot 10^8$
89. Yorug'lik nuri havodan muhitga o'tganida qaytgan nur bilan singan nur orasidagi burchak  $90^\circ$  ga teng bo'ldi. Nurning tushish burchagi  $56^\circ$  ga teng. Ikkinchi muhitda yorug'lik nurining tarqalish tezligini toping (m/s).  $\text{tg}(56^\circ)=1,5$   
A)  $1,2 \cdot 10^8$  B)  $1,5 \cdot 10^8$  C)  $2 \cdot 10^8$  D)  $3 \cdot 10^8$
90. Tomonining uzunliklari 6 sm va 10 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi yassi ramka induksiya vektorining moduli 0,2 T bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga joylashtirilgan. Agar ramka yuzasi orqali o'tayotgan magnit induksiya oqimi 0,6 mW ga teng bo'lsa, induksiya vektorining yo'nalishi bilan ramka tekisligi orasidagi burchakni toping.  
A)  $90^\circ$  B)  $60^\circ$  C)  $30^\circ$  D)  $45^\circ$



91. Tovushning balandligi tovushning qanday kattaligiga bog'liq?  
 A) tovush tembriga B) tovushning qattiqligiga  
 C) tovushning chastotasiga D) tovush intensivligiga
92. Sindirish ko'rsatkichi 1,5 bolgan shaffof muhitda chastotasi  $4 \cdot 10^{14}$  Hz bo'lgan foton tarqalmoqda. Fotonning impulsini (kg·m/s) toping. Plank doimiysi  $6,62 \cdot 10^{-34}$  J·s ga teng.  
 A)  $8,83 \cdot 10^{-28}$  B)  $8,83 \cdot 10^{-29}$  C)  $1,32 \cdot 10^{-29}$   
 D)  $1,32 \cdot 10^{-27}$
93. Parallel ulangan ikki rezistorning umumiy qarshiligi necha  $\Omega$  ga teng?  $R_1 = 20\Omega$ ,  $R_2 = 30\Omega$ .  
 A) 12 B) 30 C) 10 D) 20
94. 2 A tok hosil qilish uchun qarshiligi  $3,4 \Omega$  bo'lgan mis simning uchlariga qanday kuchlanish (V) qo'yish kerak? Simning ko'ndalang kesimi yuzini  $0,25 \text{ mm}^2$  deb hisoblab, uning uzunligini (m) toping.  $\rho = 0,017 \cdot 10^{-6} \Omega \cdot \text{m}$   
 A) 3,4; 25 B) 6,8; 50 C) 25; 3,4 D) 100; 6,8
95. Havo  $\Delta T = 30 \text{ K}$  ga qizdirilganda uning hajmi dastlabki hajmining 10% ga ortdi. Havoning boshlang'ich haroratining oxirgi haroratiga nisbatini toping.  $P = \text{const}$   
 A) 0,91 B) 1,1 C) 10 D) 0,1
96. Solenoiddagi tokning o'zgarishi tezligi 50 A/s bo'lganda uning uchlarida 75 mV o'zinduksion EYuK hosil bo'ladi. Solenoidning induktivligini (H) toping.  
 A)  $1,5 \cdot 10^2$  B)  $1,5 \cdot 10^{-2}$  C)  $1,5 \cdot 10^{-3}$  D)  $1,5 \cdot 10^3$
97. Normal sharoitda kislorod zichligi  $1,43 \text{ kg/m}^3$  ekanligi o'lchandi. Shu sharoitda havoni ( $M = 29 \text{ g/mol}$ ) zichligi ( $\text{kg/m}^3$ ) qanday bo'ladi?  
 A) 1,29 B) 1,89 C) 0,65 D) 2,59
98. C sig'imli ikki kondensator  $2U$  va  $U$  kuchlanish bilan zaryadlangan. Ularning qutblarini teskari holda ulansa, natijaviy kuchlanish qanday bo'ladi?  
 A)  $5U/2$  B)  $3U/2$  C)  $4U$  D)  $U/2$
99. Massasi  $m_1 = 100 \text{ kg}$  bo'lgan aravacha  $v_1 = 3 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanib, massasi  $m_2 = 300 \text{ kg}$ , tezligi  $v_2 = 1 \text{ m/s}$  bo'lgan ikkinchi aravachaga yetib oldi. Ularning birgalikdagi keyingi harakatining tezligi (m/s) topilsin.  
 A) 1,8 B) 1,5 C) 2 D) 1
100. Jismning tezligini 0 dan  $v$  gacha va  $v$  dan  $3v$  gacha oshirish uchun bajarilishi kerak bo'lgan  $A_1$  va  $A_2$  ishlarni taqqoslang.  
 A)  $A_2 = 6A_1$  B)  $A_2 = 9A_1$  C)  $A_1 = A_2$  D)  $A_2 = 8A_1$
101. Qarshiligi  $2 \Omega$  bo'lgan o'tkazgich EYuK 1,1 V bo'lgan elementga ulanganda, o'tkazgichdan 0,5 A tok o'tadi. Element qisqa tutashtirilganda tok kuchi (A) qancha bo'ladi?  
 A) 6 B) 7 C) 5,5 D) 5
102. O'zgaruvchan tok manbaiga induktivligi 42 mH bo'lgan g'altak ulangan. Zanjirdagi tok kuchi  $i = 1,41 \cdot \sin(100t)$  qonun bo'yicha o'zgaradi. G'altakka tushayotgan kuchlanishning ta'sir etuvchi qiymatini (V) toping.  
 A) 4,2 B) 1,41 C) 5,92 D) 2,82
103. Dastlab tinch turgan 2 kg massali jism 3 N doimiy kuch ta'sirida tezlashmoqda. 6,5 minut vaqt davomida kuch bajargan ishni (kJ) hisoblang.  
 A) 245 B) 98 C) 164 D) 342
104. Massasi 20 g bo'lgan sharcha bikrligi 2000 N/m bo'lgan prujinaga qanday balandlikdan (m) tushganida prujina 1 sm ga siqiladi?  
 A) 2 B) 0,5 C) 8 D) 4
105. Kosmik kema dvigateli unga qisqa vaqtda  $V$  tezlik beradi, so'ngra kema erkin parvozda bo'ladi. Yerdan juda uzoqda uning tezligi 2,16 Mm/h bo'lishi uchun uning boshlang'ich tezligi  $V$  qanday bo'lishi kerak (km/s)? Yer uchun  $GM = 400000 \text{ km}^3/\text{s}^2$ ,  $R = 6400 \text{ km}$ .  
 A) 11,20 B) 12,25 C) 9,39 D) 13,34
106. 2 kg va 1 kg massali silindrlar qo'zg'almas blok orqali vaznsiz ipga osilgan. Bunda birinchi silindrning 20% qismi suvga botganda muvozanat vujudga kelgan. Silindrlarning zichligini ( $\text{kg/m}^3$ ) aniqlang.  
 A) 200 B) 1000 C) 800 D) 400
107. Sindirish ko'rsatkichi 1,56 bo'lgan shishadan optik kuchi sakkiz dioptriya, har ikkala sirtining qavariqligi bir xil bo'lgan linza tayyorlash uchun sirtlarining egrilik radiuslari nimaga (m) teng bo'lishi kerak?  
 A) 0,014 B) 0,028 C) 0,28 D) 0,14
108.  $1,5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlangan avtomobil 10 s ichida 195 m masofani bosib o'tgan. Uning dastlabki tezligi (m/s) qanday bo'lgan?  
 A) 2,5 B) 10 C) 12 D) 2



